

Т. G'AFFOROVA, **E.SHODMONOV**, G. ESHTURDIYEVA

O'QISH KITOBI

**Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
1-sinfi uchun darslik**

O'n beshinchi nashr

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tasdiqlagan*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK kompaniyasi
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2019

UO'K 372.416.2
KBK 81.2.O'z.—922
O'—30

Mas'ul muharrir:

Safo Matchonov — pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Sharofat Yuldosheva — Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti;

Qimmatxon Mamatqulova — Respublika Ta'lim markazi
metodisti;

Nargiza Nurmatova — Toshkent shahar Yunusobod tumani
273-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich ta'lim
o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



— multimedia
ilovasi



— dars tugadi

O'—30 **O'qish kitobi:** 1-sinf uchun darslik / Muallif-tuzuvchilar: T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Esh turdiyeva; Mas'ul muharrir: S.Matchonov. — T.: «Sharq», 2019. — 128 b.

1. G'afforova T., muallif-tuzuvchi.

UO'K 372.416.2
KBK 81.2.O'z.—922

ISBN 978-9943-26-902-6

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-26-902-6

© G'afforova T., Shodmonov E., Esh turdiyeva G.
© «Sharq» NMAK Bosh tahririyati, 2003, 2004, ...
2019.

Biz Vatanning ertasi



VATAN

Nosirjon Jo'rayev



Vatan — bu bizning tug'ilgan joyimiz. Lekin bu so'z faqat joyni emas, bizga qadrdon hamma narsani — ota-onamizni, oilamizni, muqaddas tilimizni, atrofimizni o'rab turgan tabiatni ham anglatadi.

Inson o'z Vatanini yaxshi ko'radi. Shuning uchun ham boshqa yurtga borganlar o'z Vatanini sog'inadilar. Vatan biz uchun juda aziz bo'lgani sababli unga «ona» so'zini qo'shib aytamiz. Ona Vatanni faqat yaxshi ko'rish emas, uni asrab-avaylash ham zarur. Vatan bizning katta uyimizdir. Uni doim sevishtirish va qadrlash kerak.

Savol:

Vatan deganda nimani tushundingiz?

Maqol:



- Ona yerning tuprog'i ona sutidek aziz.

Yurt qalqonlari

Dilshod Rajab

O'zbekiston — hur Vatan,
Baxtimiz ayvonidir.
Armiyamiz mustahkam,
Ona yurt qalqonidir.

Harbiy xizmat faxrimiz —
Bu mardlar maydonidir.
Jasur askar akalar
Ona yurt qalqonidir.



◆ She'ni yod oling.

Savollar:

1. 14-yanvar qanday kun?
2. Harbiy bo'lish uchun nima qilish kerak?

Maqol:

- Ona yurti omon bo'lsa,
Rangi ro'yingi somon bo'lmas.

Tez aytish:

- Bahodir bayroqni Botirga berdimi,
Botir Bahodirga bayroqni berdimi?



Vatan surati

To'liqin Hayit

Vatan, har safar rasmingni chizmoqqa ahd qilaman. Lekin qiynalaman. Sening bugungi har kuning bir ulkan kitob. Dunyoga tanilgan, ko'plab millat, elatlarni sig'dirgan buyuk millat diyorisan.

Ulkan qurilishlar maydoni — azim poytaxt Toshkent, betimsol Samarqand, Farg'ona, Andijon, Namangan, yangi chiroy ochgan Urganch va Xiva, go'zal obidalar qad ko'targan Qarshi, Termiz, Navoiy — yana chizmaganlarim qancha!

Shunday xulosaga keldimki, dunyoning eng mohir rassomi ham sening asl suratingni chiza olmaydi. Seni faqat ko'rish kerak. Ana shundagina butun borlig'ing qallda to'la aks etishi mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Vatan haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Tug'ilib o'sgan joyingiz haqida nimalarni bilasiz? So'zlab bering.




Maqollar:

- Vatansiz inson — kuysiz bulbul.
- Ona yurtning — oltin beshiging.



Vatan — bu...

Po'lat Mo'min



Vatan deganim bu —
Yurak deganim,
Yurakka Vatanim
Kerak deganim.
Vatan deganim bu —
Yurak deganim,
Birov-biroviga
Kerak deganim.
Aslida Vatan bu —
Tug'ilgan joyim,
Birinchi qadamim
Yetgan qo'rg'onim.

◆ She'ni ifodali o'qing.

Savollar:

1. Shoir she'rida Vatanni nimaga qi-yoslayapti?
2. Siz Vatanni qanday ta'riflaysiz?

Maqol:



● Vatani borning baxti bor.

Bir kabutar

Alisher Navoiy

Bir tezuchar kabutar bor ekan. U juda uzoq-uzoqlarga uchib borar edi. Kunnardan bir kuni bir podsho uni tutib olibdi va qafasga qamab qo'yibdi. Qafas juda chiroyli ekan. Kabutarga don va suv berishibdi. Lekin kabutar unga qaramabdi. Chunki u juda xafa ekan. Bir kuni qafasning eshigi ochiq qolgan ekan, kabutar qochib ketibdi. Keyin o'z uyi tomon uchibdi. Kabutar bir necha kunlik yo'lni bir zumdada bosib o'tibdi. Uyiga yetib kelibdi, qarasam, uyi buzilib, vayron bo'lib yotgan ekan.

Kabutar qattiq xafa bo'libdi. Ammo qaytib ketmabdi. «U yer menga begona. Bu yer esa buzilgan, vayrona bo'lsa ham, o'z uyimdir», — debdi kabutar o'ziga-o'zi. U uyini tuzatishga kirishibdi.

Savollar:

1. Kabutar nimaga xafa bo'ldi?
2. Kabutar nega podsho saroyiga bormay vayron bo'lgan uyida qoldi?





Baxtli bolalar o'lkasi

Anvar Obidjon

Otajonim baxtimdir,
Onajonim baxtimdir.
Chiroylidan chiroyli
Shu makonim baxtimdir.

Toki tinchdir bu makon,
El shodon, yo'l charog'on.
Baxtli bolaligimga
Posbondir O'zbekiston!

◆ She'rni yod oling.

Savollar:

1. Baxtli bolalar qanday o'lkada voyaga yetar ekan?
2. Baxtli bolalar o'lkasini siz qanday tasvirlaysiz?

Osmondagi yo‘limiz

Vafo Fayzulloh

Men bobom bilan sayr qilishni yaxshi ko‘raman.

— Qobiljon, — dedilar bobom bir kuni daryo bo‘yidagi yangi bog‘larni ko‘rsatib.

— Bu olmazorga to‘yib-to‘yib qara. Bu bog‘lar yurtimiz mustaqil bo‘lgandan keyin barpo bo‘lgan.

Bobom bilan poytaxtimiz Toshkentga aylangani keldim. Azim shahardagi bunyodkorlik ishlarini ko‘rib juda quvondim.



Ayniqsa, yer ustida chinor daraxti bo'yidek balandda qurilayotgan metro yo'li meni hayratga soldi. Bu shaharning to'rt tomoniga tez yetib olishga imkon beradi. Hali bu metro yo'li ishga tushsa, go'yo osmonga solingan yo'limiz bo'ladi.

Bu mening tobora chiroy ochib borayotgan yurtim.

Savol va topshiriqlar:

1. Qobiljon Toshkentda metro qurilishini ko'rib, nega bunchalik quvondi?
2. Aziz o'quvchi, sizning qishloq yoki shahringizda qanday o'zgarishlar bo'lmoqda? Shu haqida so'zlab bering.

Topishmoq:

- Ish bo'lsa, yuradi,
Bo'lmasa, tik turadi.




Tez aytish:

- Qurilishga terak kerak,
Demak, ekmoq kerak terak.




BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

1. «Yurt qalqonlari» she'ri asosida rebusni yeching.



2. Boshqotirmaning to'g'ri yechsangiz, biz uchun aziz bo'lgan joy nomi kelib chiqadi.



Vatan haqida maqollar:

1. Baliq suv bilan tirik,
Odam — el bilan.
2. Vatan sevgisi ortar,
Mehnat sevgisi tortar.
3. Ayrilmagin elingdan
Quvvat ketar belingdan.
4. Vatanning tinch — sen tinch.

Savol va topshiriqlar:

1. Vatan haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. «Vatan — bu» she'rini yoddan aytib bering.
3. «Yurt qalqonlari» kimlar va ular nima qiladilar?
4. Kabutar nega podsho qafasidan qochib ketdi?
5. Aziz o'quvchi, ayting-chi, siz qanday o'lkada voyaga yetishni xohlardingiz? Javobingizni daftaringizga yozing.



MO‘JIZAVIY QISH



Qish

Tursunboy Adashboyev

Shudgor uzra uvullar
Ayoz bobo bo‘roni.
Mehmon bo‘ldi qish fasli
Oq choyshabga o‘ranib.

Bundan buyon ko‘cha-ko‘yda
Piyma, etik g‘archillar.
Tinim bermas chanalarga
Shokir, Ra‘no, Barchinlar.

Savol:

Qish fasli sizga nimasi bilan yoqadi?



Yashasin qish!



Qish o'zining sovuq shamollari, oppoq qorlari bilan kirib keladi. Havo sovuq bo'lsa ham, qordan quvonib, qor otish, muzda uchish o'yinlarini o'ynash juda maroqli. Ayniqsa, Yangi yil bayrami g'aroyib ertaklar o'lkasiga tushib qolganday his uyg'otadi. Qorbobo, qorqiz va bolalar yasatilgan archa atrofida she'r, qo'shiqlar aytib, raqsga tushadilar. Qorbobo bolalarni qutlab, sovg'alar ulashadi. Yangi yil bayrami bolalar xotirasida o'chmas iz qoldiradi. Yashasin qish!

Savol va topshiriqlar:

1. Qishda yana qanday o'yinlar o'ynaysiz?
2. Sizga qaysi fasl ko'proq yoqadi? Nima uchun? Fikringizni daftarga yozing.





O'zimizning qish

Xudoyberdi Komilov

Kirib kelar jimgina,
Yomg'ir bilan, qor bilan.
Ketishi shamol, bo'ron,
To'polon, g'ubor bilan.

Oxir, o'ylab bildim men
Bunday g'alati ishni,
Bizning go'zal Vatandan
Ketgisi kelmas qishni.

◆ She'ni yod oling.

Savol:

Qor yog'ganda tabiat qanday tusga kiradi?





Qor bosgan dala

Dilshod Rajab

Qish. Sohibjon ertalab tursa, derazalarga muzdan gullar chizilgan. Qishbobo uni tabriklagandek muzgullarni sovg'a qilib qo'yibdi. U xursand bo'ldi. Nonushtadan so'ng singlisi Lola bilan qor bosgan dalaga chiqib ketishdi. Qishda bu

sayrning ham o'z gashti bor-da. Hamma yoq oppoq qorko'rga bilan qoplangan.

Bir payt Lola beligacha qorga botib ketdi. Sohibjon uni zo'rg'a tortib chiqardi.

— Ehtiyot bo'lib yursang-chi, — dedi u Lolaga. Chuqurlikni ko'rmay qoldim-da, — dedi Lola. Sal o'tmay Sohibjonning o'zi bir nimaga qoqilib, yiqilib tushdi. Yuzi, ust-boshi oppoq qor bo'lib, o'rnidan turdi.

— Ha, endi toki havo ilib, qorlar eriguncha bu yerlardan ehtiyot bo'lib qadam bosish kerak. Qor ostida nima bor, bilmasang.

Bu qor bosgan dalada Sohibjon chiqargan oddiy bir hayotiy xulosa edi.

Savollar:

1. Nega Lola qorga botib ketdi?
2. Matndan qanday xulosa chiqardingiz?

Topishmoq:

- Toyim bor, kishnamaydi,
Yozda hech ishlamaydi.





Qish va bolalar

Anvar Obidjon

Oyxon archa bezaydi,
Elbek chana yasaydi,
Nor yo'lakda kurar qor,
O'tin tashir yosh Jabbor,
Qorqiz yasar Marhabo,
Nurbek esa — qorbobo...
Yurtimizga qish keldi,
Bolalarga ish keldi.

Savol:

Qishda bolalar nimalar bilan shug'ullanadilar?

Topishmoq:




● Qo'lsiz, oyoqsiz gul solar. (Ayoz)

BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Boshqotirma

Katakchalarni to‘ldirib, bo‘limga mos maqolni toping.



... — yozda ye.

Maqolni to‘ldiring.

Savol va topshiriqlar:

1. Qishda diyorumiz tabiatida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ladi?
2. Sizga qish nimasi bilan yoqadi?
3. Qishda qanday bayramlar nishonlanadi?

Maqol:

- Qishning qori — yozga dori.

Topishmoqlar:



- Qishda terlab ishlaydi,
Boshqa mahal qishlaydi.

- Chimchilaydi yuzingni,
Yoshlatadi ko'zingni.
Ignasin sanchib olar,
Burning qizarib qolar.




- Qish chog'i kapalaklar
Uchib yurar osmonda.
Qiziq, yo'qolib qolar
Kaftimga qo'ngan onda.

Tez aytish:



- Qishda kishmish pishmasmish,
Kishmish pishsa, qishmasmish.

BIZ — BUYUKLAR AVLODI



Amir Temur

Muhammad Ali

Amir Temur bobomiz buyuk davlatga asos solgan. Ona yurtimiz Turkiston diyorini butun dunyoga tanitgan. «Kuch — adolatda» so'zlari uning uzugida hamisha yarqirab turgan.

Bobomiz millat, Vatan sharafini hamma narsadan baland qo'yan. U bunyodkor, ilm-fan homiysi va kuchli sarkarda bo'lgan. Zukko va donishmand Amir Temur betakror siymodir.



Amir Temur o'g'itlari

1. Do'stlik haqida:

- Yaxshini yomon kunda sina.
- Sodiq va vafodor do'st o'z do'stini ranjitmaydi.
- Birliksiz kuch bo'lmas.


2. Aql va adolat haqida:

- Kuch — adolatda.
- Oq bo'lsang, ont ichma.
- Qo'rqmasang, yov qochar.
- Boshga qilich kelsa-da, rost so'zla.

Savollar:

1. Amir Temur bobomiz ona yurtimiz uchun qanday xizmatlar qilgan?
2. Amir Temur bobomiz nimani hamma narsadan baland qo'ygan?
3. Siz kimni do'st deb hisoblaysiz?
4. To'g'riso'zlik deganda nimani tushunasiz?





Muhammad al-Xorazmiy


Buyuk bobomiz al-Xorazmiy yoshligidan ilmga chanqoq bo'lgan. Muhammad juda ko'p kitoblar o'qigan. U tabiat sirlariga juda qiziqqan. Katta bo'lgach, bir necha fanlarning bilimdoni bo'lib yetishadi. Buni eshitgan Bag'dod shohi uni «Hikmatlar uyi» deb nomlangan olimlar maktabiga boshliq etib tayinlaydi.

Al-Xorazmiy matematika ilmining asosini yaratgan olim. Uning bu sohada yaratgan asarlarini butun dunyo xalqlari o'qiydi.

Savol:

Bobomiz haqida nimalarni bilib oldingiz?





G'azal mulkinging sultoni

Bobomiz Alisher Navoiy buyuk shoir, olim va davlat arbobi bo'lgan. Besh-olti yoshidayoq ko'p she'rlarni yod olgan.

Bobomiz bizga juda ko'p asarlar yozib qoldirgan. Bu ulug' zot shoirlarning sultoni bo'lgan.

Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari

- Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim.
- Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

- Yaxshi kishi yomonlardan ham yaxshiligini ayamasa.
- Yaxshilikni bilmasang, yaxshilarga qo'shil.

Savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Alisher Navoiy aytgan hikmatli so'zlarni yoddan ayting.
3. O'zingiz bilgan hikmatli so'zlarni ayting.

Boshqotirma

Mevalar rasmidan foydalanib boshqotirmaning yechsangiz, maqolning davomini o'qiysiz.

Aql yoshda emas — ...

1



2



3




1							
2							
3							
4							
5							

4



5





Abu Ali ibn Sino

Ibn Sino dunyoga mashhur hakim va olimdir. Asli ismi Husayn bo'lgan. Yoshligidan ilmga, tabobatga juda qiziq-qan.

Abu Ali ibn Sino davolayotgan bemorlariga shunday degan: «Biz uch tarafmiz — men, sen va kasallik. Agar sen men tarafga o'tib olsang, u yengiladi. Agar u tomonga o'tib olsang, ikkalangni yengishim qiyin».

Savollar:

1. Abu Ali ibn Sino haqida nimalarni bildingiz?
2. U kishi bemorlarga nima degan?





Buyuk munajjim


Mirzo Ulug'bek ham podshoh, ham olim edi. U kishi Amir Temurning nevarasi bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek o'n besh yoshidan boshlab podshohlik qilgan. Qirq yillik podshohlik davrida ko'p savob ishlarni amalga oshirgan. Samarqandda rasadxona qurdirgan. Rasadxonada osmon, oy, yulduzlar kuzatilgan. Shuning uchun u kishini buyuk munajjim, olim va shoh deyishadi.

Savollar:

1. Mirzo Ulug'bek kim bo'lgan?
2. Ulug'bek bobomiz qanday ishlarni amalga oshirgan?





Shoh va shoir

Bobur Mirzo Andijonda tugʻilgan. Uzoq yillar Hindistonda shohlik qilgan. Bizga koʻp kitoblar yozib qoldirgan. Shuning uchun ham uni shoh va shoir deyishadi.

«Boburnoma» kitobida bobomiz oʻz boshidan oʻtkazgan voqealarni yozgan. Shuningdek, unda togʻlar, gullar, qushlar, hayvonlar haqida ham oʻz fikrlarini yozib qoldirgan.

Savollar:

1. Bobur Mirzo haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. «Boburnoma» kitobida nimalar haqida yozilgan ekan?



Ona sabogʻi

Gʻiyos Komilov



Yoz oxirlab borayotgan damlar. Osmon koʻzguday tiniq, musaffo. Yetti yashar mitti Zahiriddin onajonisining yonginasida. Ona-bola oʻzaro suhbat qurdilar. Hozir farzandi derazadan koʻkka boqib qolgan edi.

U osmondagi uyum-uyum paxtani eslatuvchi bulutlarga javdirab qarardi.

— Onajon, — dedi jajji Bobur, — bulutlarni qoʻl bilan ushlab boʻladimi?

— Bolajonim! — jilmaydi onasi. — Momiq emaski, qoʻl bilan tutib boʻlsa. Ular suv zarralari-ku. Faqat bugʻ holatida. Bugʻlardan esa bulutlar paydo boʻladi. Ular yomgʻir yoki qorga aylanib yogʻayotgandagina qoʻlingizni tutsangiz...

— Ha-a-a, angladim, angladim..

Savol va topshiriqlar:

1. Bobur va uning onasi nimalar haqida suhbatlashdilar?
2. Onasi Boburga nimalar haqida soʻzlab berdi? Onaning gaplarini kitobdan oʻqib bering.
3. Bulutlar qanday paydo boʻlar ekan?

Topishmoqlar:

- Makoni — osmon-dengiz, Kemadek suzar, izziz.
- Tunda koʻrib, choʻgʻ deysan, Tongda koʻrib, yoʻq deysan.



Maqol:

- Otangni kaftingda tutsang, Onangni boshingda tut.




BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH



Boshqotirma

Katakchalarni to'g'ri to'ldirsangiz, Amir Temur amal qilgan hikmatli gap kelib chiqadi.




Savol:

Darslikdagi qaysi matnda yuqoridagi hikmatli gap aytilgan?

Boshqotirma

Katakchalarni to'g'ri to'ldirsangiz, «aloma» so'zi kelib chiqadi.



1



2



3



4



5



6

Savol va topshiriqlar:

1. Bu bo'limda kimlar haqida o'qidik?
2. Amir Temur bobomizning uzugida qanday so'zlar yozilgan ekan?
3. Al-Xorazmiy kim bo'lgan ekan?
4. Alisher Navoiy haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Ibn Sino nimalarga qiziqqan ekan?
6. Ulug'bek bobomiz kim bo'lgan?
7. Bobur Mirzo haqida nimalarni bilib oldingiz?

KO'KLAM — YASHNAYDI OLAM



Bahor kelgach

Tursunboy Adashboyev

Qish qorini supurdi,
Quyosh nurin ufurdi,
Yalpiz hidi gupurdi
Bahor kelgach.

Chaqmoq ko'kda yong'oq chaqdi,
Qizg'aldoqlar selda oqdi,
Mayin shamol
Bizga yoqdi
Bahor kelgach.

◆ She'ni yod oling.

Savol:

Bahorda tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?



Bahor

Sharofat Ashurova

Bahor. Zulfiya momo nevaralari bilan tabiat qo‘yniga chiqdi. Bolalar shod quvna-shib, qizg‘aldoqlar tera boshladilar. Zebo dalaning go‘zalligidan hayratga tushdi:

— Buvijon, qarang, qizg‘aldoqlar ham atlas ko‘ylak kiyibdilar, — dedi.

— Bahor bolalarni, lolalarni ham sevadi, — dedi buvisi. Buvi bitta qizg‘aldoqni uzib chakkasiga taqdi. Buni ko‘rgan Asilbek nevarasi shodlanib kuldi: — Opajon, qarang, buvimning qulog‘iga ham bahor keldi.

— Ukajon, endi biz gulchambar yasaymiz, bahorni boshimizga qo‘yamiz! — deya Zebo qizg‘aldoqlar terishga kirishib ketdi.

Ayni damda bahor gullarining isi borliqni tutib ketgandi.

Savollar:



1. Zebo nimadan hayratga tushdi?
2. Siz gulchambar yasashni bilasizmi?



Ona allasi

(Rivoyat)

Qadimda bir podshoh bo'lgan ekan. U bir kuni barcha qo'shiqchilarni chaqiribdi. Ularga navbatma-navbat kuylashni buyuribdi. Lekin birorta qo'shiq ma'qul kelmabdi. Axiyri bir onaxonni keltiribdilar. U alla aytishni boshlabdi.

Podshoh qo'shiqni eshitib, yum-yum yig'labdi. Bu kuy unga onasini, beg'ubor bolaligini eslatibdi. Shuningdek, bu allada xalqning orzu-armonlari ham bayon etilgan ekan:

Senga qo‘ydim yaxshi ot, alla,
Yaxshi niyatdir murod, alla.
Yurt-u elga suyansang, alla,
Senga bo‘lg‘usi qanot, alla.

Savollar:

1. Podshoh nima qilishni buyuribdi?
2. Onaxonning qo‘shig‘idan podshoh nega yig‘labdi?
3. «Alla» qanday qo‘shiq?



Sakkizinchi mart

Zikrilla Ne‘mat

Sakkizinchi martni men
Juda yaxshi ko‘raman.
Onajonimga atab
Dasta gullar teraman.

Bayramingiz muborak
Bo'lsin, — deya, — oyijon!
Guldastamni oyimga
Tutarman shod-u xandon.

Guldastam olib oyim,
Xursand bo'lib ketarlar.
Sog' bo'lgil, — deb, — iloyim,
Peshonamdan o'parlar.

◆ She'ni yod oling.

Savollar:

1. Onajonlar bayrami qachon nishonlanadi?
2. Siz onajoningizni qanday tabriklaysiz?

Topishmoqlar:

● Yerga tushsa loy qilar,
Dehqonlarni boy qilar. (Yomg'ir)

● Aytsalar oyim bizga,
Uyqu keladi ko'zga. (Alia)



Bahor keldi

Vafo Fayzulloh

Bir kuni tongda Maftunani uyqudan «qurey-qurey» ovozlari uygʻotib yubordi. U oʻrnidan tura solib, derazadan tashqariga boqdi. Osmonda argʻimchoq solib, turnalar uchib oʻtar edi.

U onasining oldiga borib soʻradi:

— Oyijon, bular qanday qushlar?

— Turnalar, qizalogʻim, turnalar. Ular biz tomonga bahorni olib kelishdi.


— Bahor kelganini qanday bilsa boʻladi, oyijon?

— Turli-tuman qushlar uchib keladi. Dalalarda maysalar yam-yashil boʻladi. Daraxtlar qiygʻos gullaydi.

— Bahor unda yaxshi ekan-da?! — dedi Maftuna.

Savol:

 Bahorda oʻlkamizga qanday qushlar uchib keladi?



Navro'z bayrami

Navro'z yangi kun demakdir.

21-mart — Navro'z bayrami. Navro'zda tabiat uyg'onadi. Birinchi bo'lib chuch-moma, boychechaklar ochiladi. Onalarimiz sumalak pishiradilar. Yalpiz, jag'jag', ismaloq kabi ko'katlardan terib, ko'k som-salar yopadilar. Ko'chatlar ekilib, hovli-joylar supuriladi. Ko'chalar tozalanib, yasatiladi. Urishganlar yarashadilar. Bayramda turli tomoshalar bo'ladi. Hamma birgalikda o'ynab-kuladi.

Navro'z keldi, soz keldi,
Turna keldi, g'oz keldi.
Yam-yashil chorbog'lardan
Bulbulday ovoz keldi.

(Xalq qo'shig'i)

Savol va topshiriqlar:

1. Navro'z qachon bayram qilinadi?
2. Navro'zni odamlar qanday nishonlaydilar?
3. Bahorgi taomlarga solinadigan ko'katlar nomini ayting.

Topishmoqlar:

- Oq sandig'im ochildi,
Olamga nur sochildi.



- Dum-dumaloq barkash non,
Ko'k yuzida suzadi.


Tez aytish:



- Gulsara gulzor oralab gul sanadi.

Navro‘z

Rauf Tolib



Ko‘hna Turon elida
Navro‘zi olam.
Yellar tutar qo‘limdan:
«Qani, yur, oshnam!»
Nur sochadi mo‘l-u ko‘l
Navro‘z quyoshi.
Sayilgohda yurtimning
Keksa-yu yoshi.
Qozonlarda sumalak,
Yoziq dasturxon.
Navro‘z bayram
muborak,
Ey O‘zbekiston!

◆ She‘rni yod oling.

Savollar:

1. Navro‘zda tabiatda qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi?
2. Navro‘zda qanday taomlar pishiriladi?




BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Boshqotirma

Katakchalarni to‘g‘ri to‘ldirsangiz, «alla» so‘zi kelib chiqadi.



1



2



3



4



Bahor gullarining nomini ayting.



1



4



2



5





3



6

Rasmda nimalar tasvirlangan?



Savol va topshiriqlar:

1. Bahorda qanday bayramlar ni-shonlanadi?
2. Bahorda qanday gullar ochiladi?
3. Bahor haqida bilgan she'ringizni yoddan ayting.



KITOB BIZNING DO‘STIMIZ



Kitobni asrang

Kitob qadim-qadimdan e’zozlangan. Ota-bobolarimiz kitobni qo‘liga olganda, uni o‘pib, ko‘zlariga surtganlar. Bu: «Bizga bilim berasan, seni ko‘z qorachig‘idek asraymiz», — degani. Uning varag‘ini yirtish, iflos joylarga qo‘yish gunoh sanalgan. Kitobni muqaddas deb bilganlar.

Savol:

Qadimda ota-bobolarimiz kitobga qanday munosabatda bo‘lganlar?

Maqollar:

- Kitob — bilim bulog‘i.
- Bilimdan ortiq boylik yo‘q.

Topishmoq:

- Tinmay o‘qisang agar,
Ko‘p narsani o‘rgatar.
Bilsang, uka, o‘ylab top,
Bilim koni u —



Kitobim, jon kitobim

Dilshod Rajab

Nur, ziyoga kon o'zing,
Do'st-u qadrdon o'zing,
Ma'no to'la har so'zing,
Kitobim, jon kitobim!



Zavq-shavqqa to'lar dilim,
Olaman sendan bilim,
Bulbulday sayrar tilim,
Kitobim, jon kitobim!

Qo'limdan hech qo'ymayman,
O'qib-o'qib to'ymayman,
Kelajakka bo'ylayman,
Kitobim, jon kitobim!

Savol va topshiriqlar:

1. Kitob insonga nima beradi?
2. Siz qanday kitoblar o'qigansiz? Ular haqida so'zlab bering.





O'quv va bilim haqida

Yusuf Xos Hojib

O'quv, idrok, bilim haqida alohida to'xtash joizdir. O'quv, idrok qorong'i tundagi mash'alga o'xshaydi. Bilim esa mash'aldan taralayotgan nurga o'xshaydi.

O'quv qut beradi, bilim — sharaf-shon,
Shu ikkovi tufayli ulug'dir inson.

Bunga ishonmasang, shubha qilsang,
ko'zingni katta och. Menga bitta hikmatli
gap yaxshi ma'lum: «Bilimdon o'z bilimi
tufayli balo, ofatlardan omon qoladi».

Savol va topshiriqlar:

1. O'quv, idrok haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. O'quv, idrok, bilim nimaga o'xshaydi?
3. O'quv va bilim insonga nima beradi?
4. Hikmatli gapni matndan o'qib bering.

Maqol:

- Aqlning qayrog'i — bilim.

Tez aytish:

- Kitoblar kitobxonlarga kerak,
Kitobxonlarga kitoblar kerak.

Topishmoqlar:

- O'rtog'im ruchka, qalam,
Bir chiziq, katak dalam.
Ikkichiga kamtarman,
A'lochiga ...



- Rangi har xil,
Nomi bir xil.





Kompyuter



Kompyuter — aqlli mashina. Uning xotirasida minglab axborotlarni saqlash mumkin.

Agar do'st bo'lsangiz, ko'p sirlardan xabardor bo'lasiz. U misol va masalalarni bir zumda yechib beradi. Kitob o'qimoqchi bo'lsangiz, u darhol yordamga oshiqadi. Biror narsa yozmoqchi bo'lsangiz, u tayyor. Charchasangiz, musiqa tinglashingiz yoki kino ko'rishingiz mumkin.

Kompyuter siz bilan o'ynay oladi ham. U shaxmat, shashka o'yinlarini yaxshi biladi.

Savollar:

1. Kompyuter haqida nimalarni bildingiz?
2. Ayting-chi, kompyuter bilan do'stlashish mumkinmi?

Maqol:

- Ilm olsang dunyoda,
Aqling bo'lar ziyoda.





Kitobga mehr



Mirkarim Osim

Husayn ertalab bozorni aylanib yurgan edi. Ko‘zi kitob ushlab turgan bir kampirga tushdi.

— Onajon, kitobingizni soturmisiz?

— Ha, juda yaxshi kitob.


Yigitcha bor puliga kitobni sotib oldi. Uni varaqlay boshladi. Bu kitobda Husaynni qiziqtirgan savollarga javob bor edi. Husayn bu kitobni kechasi bilan uxlamay o‘qib chiqdi.

Savollar:

1. Husaynning kitobni yaxshi ko‘rishini nimadan bilib oldingiz?
2. Siz qanday kitoblarni o‘qishga qiziqasiz?

Topishmoq:


- Oq yer ochilgan,
Qora bug‘doy sochilgan.



BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Boshqotirma

Katakchalarni to'g'ri to'ldirsangiz, ilm manbayiga oid so'z kelib chiqadi:



Rebus

Rebusni yechsangiz, kitob haqidagi hikmatli gap kelib chiqadi:





bi
~~ye~~



b
~~o~~ ~~o~~ + g'i.

Boshqotirma

O'quvchiga maktabni topib borishida yordam bering.




O'quvchiga yordam berib, qaysi hikmatli gapni o'rganib oldingiz?

Savol va topshiriqlar:

1. Kitobni qanday asrash kerak?
2. Kompyuter qanday vazifalarni bajara olar ekan?
3. Bilim olish haqidagi maqollardan ayting.



XALQ O'GITI — BAXT KALITI



Sher va sichqon

(Ertak)

Oqko'ngil sher bir kuni sichqonga yaxshilik qilgan edi. Oradan bir necha kunlar o'tib, sher tasodifan tuzoqqa tushib qoldi. Sherning yaxshiligini sichqon esdan chiqarmagan edi. U o'tkir tishlari bilan tuzoqni qirqib, o'z najotkorini qutqardi.

Savol va topshiriqlar:

1. Sichqon sherni nima uchun qutqardi?
2. Yaxshilikning oqibati haqida soʻzlab bering.

Hikmatli gap:

- Yaxshining yaxshiligi tegar tor yerda,
Yomonning yomonligi tegar har yerda.

Maqol:

- Yaxshilik qilsang — yaxshilik koʻrasan.



Topishmoq:

- Toping-chi, uning nomin, Sichqonning berar dodin?

Tez aytishlar:

- Soli hovlida xoli qoldi.
- Erkin egatga ekin ekdi.





Maymun va duradgor

(Masal)

Bir maymun duradgorning yog'och ustida o'tirib pona bilan uni yorayotganini ko'rib qoldi. Duradgor bir ponani qoqib, ikkinchisini chiqarib olar edi. Uni boshqa yerga qoqib, yog'ochni yorib borar edi.

Duradgor zarur ish bilan bir yoqqa ketdi. Buni ko'rgan maymun duradgorning ishini davom ettirmoqchi bo'ldi. U yog'ochning ustiga minib oldi. Maymunning dumi yog'ochning yorig'iga tushib turgan edi. U ponani sug'ura boshladi.

Maymun ponani sug'urgan ham ediki,
yog'och dumini qisib qoldi. Maymun
hushidan ketdi.

Savollar:

1. Duradgor nima ish qilayotgan edi?
2. Maymun nima qildi?
3. O'ziga aloqador bo'lmagan ishga aralashishning oqibati nima bilan tugaydi?

Maqol:

- Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin.

Topishmoqlar:



- O'sar ko'kka bo'y cho'zib,
Qulochday bargin yozib.
Xipcha bel, zarrin soqol,
Tishlari zich, dur misol.



- Oqmas suvda o'zingni ko'r.





Shamol va quyosh

Ezop

Bir kuni shamol va quyosh bahslashib qolibdi. Ular bu tortishuvni yo'lda ketayotgan yo'lovchi yordamida hal qilishga kelishib olishibdi. Kim birinchi bo'lib yo'lovchining egnidagi po'stinini yechsa, o'shani kuchli deb tan oladigan bo'lishibdi.

Shamol birinchi bo'lib qattiq esa boshlabdi. Yo'lovchi yurishga qiynalib, zo'rg'a qadam tashlabdi. Shamol kuchaygani sayin yo'lovchi ham po'stiniga mahkamroq o'ranib olibdi. Qancha harakat qilmasin, yo'lovchining po'stinini shamol yecha olmabdi. Navbat quyoshga

kelganda, u o'zining iliq nurlarini sochibdi. Keyin esa taftini zo'raytirib, yo'lovchini qizdira boshlabdi. Shunda yo'lovchi isib ketganini his qilib, po'stinini yechibdi.

Xulosa shuki, ko'p narsaga zo'ravonlik bilan emas, oliyjanoblik bilan erishsa bo'ladi.

Savollar:

1. Shamol bahsda nima uchun quyoshdan yengildi?
2. Oliyjanoblik qanday xislat?
3. Shamol va quyoshning bahsidan qanday xulosa chiqardingiz?


Tez aytish:

- Qo'ng'iroq qo'g'irchoqnikimi, qo'zi-choqnikimi?

Topishmoq:

- Yungi igna,
Burni tugma,
Ko'zi munchoq,
Bag'ri yumshoq.





Rostgo'y bola

(Ertak)

Qadim zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Podshohning farzandi yo'q ekan. Shuning uchun u doimo xomush bo'lib yurar ekan. Podshoh vazirning maslahati bilan bolalarga gul urug'i tarqattiribdi. Kimning guli chiroyli bo'lsa, o'shani podshoh farzand qilib olmoqchiligini aytishibdi.

Oradan birmuncha vaqt o'tibdi. Podshoh gul o'stirganlarni ko'rish niyatida

shahar aylanibdi. Ko‘p bolalar va ular o‘stirgan gullarni ko‘rib o‘taveribdi. Bir ko‘chaga yetganda podshohning ko‘zi gulsiz tuvak ushlab, yig‘lab o‘tirgan bolakayga tushibdi. Bolakayning oldiga borib:
— Sen o‘stirgan gul qani? — deya so‘rabdi.

Shunda bolakay gul urug‘i o‘sib chiqmaganligini aytibdi.

Podshoh:

— Men farzandlikka olish niyatida axtargan bola mana shu bo‘ladi, — debdi. Chunki podshoh gul urug‘larini qaynatirgan ekan.

Savollar:

1. Podshoh o‘ziga farzand tanlash uchun qanday yo‘l tutdi?
2. Bola gulni nega o‘stira olmabdi?
3. Podshoh nima uchun bolakayni o‘ziga farzandlikka tanlabdi?

Tez aytish:

- Sa‘va saharda sadada sayraydi.





Aqlli qarg'a

Abdulla Avloniy

Yoz fasli jaziramasida hamma yoqda suvlar quribdi. Bechora qarg'a suv yo'qligidan chanqab, juda qiynalibdi. Har tarafdin suv axtarar ekan, birovning oldida turgan ko'zani ko'rib qolibdi. Ko'zaning yoniga kelib qarasa, ichida suv bor ekan. Lekin bo'ynini suqib ichay desa, bo'yi yetmabdi. Shunda u tumshug'i bilan

toshlarni yig'ib, ko'zaning ichiga tashlay boshlabdi. Birozdan so'ng ko'zaning ichidagi suv ustiga chiqibdi. Aqlli qarg'a suvdan ichib, tashnalik balosidan qutulib, uchib ketibdi.

Savollar:

1. Qarg'a jaziramada nega qiynalibdi?
2. Sarlavha nega «Aqlli qarg'a» deb nomlangan?

Hikmatli gap:

● Vaqt kutib turmaydi, har bir daqiqani g'animat bil.

Topishmoqlar:

- Bulutga qilich solar,
Yalt-yalt etib yo'l ochar.
- Qanot qoqar viz-vizlab,
Asal yig'ar gul izlab.



Tez aytish:

- Tez aytgin-u, tez gapir,
Tez aytganga bir patir.



Shirin uyqu

Bir odamning uchta o'g'li bor ekan. Ota vafotidan oldin: «Uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng», — deb o'g'illariga vasiyat qilibdi. Bu gapni ikkita katta o'g'li bir xil tushunibdi. Kichik o'g'il boshqacha tushunibdi.

Ikkita katta aka yerlarga suv sepibdi. Chorpoqa qurib, katta ko'rpani to'shashibdi. So'ng «uyquni shirin qilish» shunday bo'ladi-da, deb faqat yotishibdi. Keyin esa har xil taniq taomlarni yeb «ovqatni shirin qilib yeyish» mana shunaqa bo'ladi-da,

deyishibdi. U yoqqa ag'nab, bu yoqqa ag'nab yotishda davom etishibdi. Ovqatlari singmay, yegan ovqatlarining ham, uyqu-larining ham mazasini bilishmabdi. Oxiri yeyishga ovqatlari ham qolmay kambag'al bo'lib qolishibdi.

Kichik o'g'il esa ishlab-ishlab, quruq yegan noni ham shirin, ichgan choyi undan ham shirin, uxlasa uyqusi ham shirin bo'lar emish.

Shunday qilib, uning borgan sari davlati ziyoda bo'lib, uyqusi shirin, ovqati mazali bo'lib boraveribdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qani ayting-chi, ota vasiyatini qaysi o'g'il to'g'ri tushuna olgan ekan?
2. Katta akalarning ishiga baho bering. Siz nima qilgan bo'lardingiz?
3. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

Tez aytish:

- Taom ta'min tuy o'rtoq,
Tur o'rningdan, tur tezroq.





Maqtanchoq xo'roz

Vasil Suxomlinskiy

Hovlida aylanib yurgan xo'roz osmondagi kamalakni ko'rib qoldi. Ko'rdi-yu, mag'rurlanib kuldi:

— Dunyodagi eng rangdor narsa mening dumim, — dedi.

U hatto kamalakdan ham chiroyli.

Shu payt birdan yomg'ir quydi. Xo'rozning dumi shalabbo bo'lib, naq yerga tegay deb, osilib qoldi. Xo'roz juda uyaldi. Indamay, iniga ko'tarildi-da, ikkinchi maqtanmaydigan bo'ldi.

Savol va topshiriqlar:

1. Maqtanchoqlik oqibati qanday bo'lar ekan?
2. Hayotingizda shunday voqealarga guvoh bo'lganmisiz?
3. Maqtanchoqlik oqibati haqida bilganlaringizni daftaringizga yozing.

Topishmoq:

- Qo'shig'i asli «qu-qu»,
Tongni qarshi olar u.
Ko'zdan qochsin deb uyqu,
Jar soluvchi so'zi shu.



Tez aytish:

- Olma shoxida olmaxon,
Olmaxonni olma, Olmaxon.



Kim aqlli?

Ikki chumchuq chug'urlashib qolishdi:

- Men aqlliman!
- Yo'q, men aqlliman!
- Sen emas, men!



— Yo‘q, sen emas, men!

Bu bahsni qaldirg‘och ko‘rib turgan edi.

— Sen ayt-chi, qaysi birimiz haqmiz? — deb so‘rashdi undan janjalkash chumchuqlar.

Qaldirg‘och biroz xayolga cho‘mdi-da, keyin:

— Menimcha, kim oldin jim bo‘lsa, o‘sha aqlliroq, — dedi.

Savollar:

1. Chumchuqlarning tortishuvi qanday yakunlandi?
2. Qaldirg‘ochning aytganiga qo‘shilasizmi?





Qafasdagi qushcha va ko'rshapalak

Sayroqi qushchani qafasga qamab, tashqariga osib qo'yishgandi. U faqat tunda, hamma qushlar uyquga ketganda sayrardi. Bir kuni kechasi ko'rshapalak kelib, qushchadan nega kun bo'yi tinch o'tirib, kechasi sayrashini so'rabdi. — Bunday qilishimning o'ziga xos sababi bor, — debdi qushcha. — Bir kuni kunduzi sayrayot-sam ovchi ovozinga maftun bo'lib qoldi va to'rini qo'yib, meni tutib oldi. Shundan beri faqat tunlari sayrayman.

— Lekin hozir qafasda turganingda bunday qilishing foydasiz-ku, — debdi ko'rshapalak. — Agar buni sen qo'lga tushishingdan oldin qilganingda edi, hozir ozod yurgan bo'larding.

Savollar:

1. Qushcha nega kechasi sayrardi?
2. Qushlarga qanday g'amxo'rlik qilish kerak?

Maqol:

- Yengil oyoq uzoqqa qochar,
Yengil bosh tuzoqqa tushar.

Tez aytish:

- Katta-katta ko'zmunchoq
Ko'ylagimga ko'rk munchoq.

Topishmoq:

- Qanotlari momiq, par
Xat tashuvchi ham chopar.
Tog'-u sahro ohsa ham,
Manzilin oson topar.





Oq terakmi, ko'k terak?

Oq terakmi, ko'k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
— O'zi a'lo o'qiydi.
Tartibli ham odobli,
Hammani sevar,
Tikishda chevar.
Barchadan chaqqon,
Hammaga yoqqan.
Go'zal, Ozoda kerak.

Savol:

Yana qanday o'yin-qo'shiqlarni bilasiz?



Maqollar

- Sogʻ tanda — sogʻlom aql.
- Ozodlik — obodlik.
- Yurtim, deb yuzga kirdim.
- Birliksiz kuch boʻlmas.
- Bilimdan ortiq boylik yoʻq.
- Bilimlga dunyo yorugʻ,
Bilimsizga — qorongʻi.
- Sogʻliging — boyliging.
- Gap bilan shoshma,
Ish bilan shosh.
- Dili pokning ishi pok.
- Til — aql bezagi.
- Yaxshi soʻz boldan shirin.
- Aql — Hasan, odob — Husan.

Savol:

Siz yana qanday maqollarni bilasiz?



Topishmoqlar

- Kichkina dekcha,
Ichi to'la mixcha.



- Yer tagida oltin qoziq,
U hammaga bo'lar oziq.

- Pishsa bemaza,
Pishmasa maza.



- Dum-dumaloq bo'yi bor,
Palovda obro'yi bor.

- Bir onadan yuz bola,
Yuzovi ham bo'z bola.



- To'ni silliq, tuki yo'q,
Ichi qizil, ko'ki yo'q.

- Yomg'irdan so'ng chiqadi,
Cho'tir qalpoq kiyadi.
Quyoshni yoqtirmaydi,
Shamolni chaqirmaydi.



- Ajib ishlar bo'ladi,
Uxlaganlar ko'radi.



- Chopsa, chopilmas,
Bo'lsa, bo'linmas.
Kessa, kesilmas,
Ko'msa, ko'milmas.


- Har kun yerga tushadi
Ikkita sara parda.
Ikki rangda ikkovi —
Oq parda, qora parda.
Tushganda qora parda,
Oq parda bekinadi.
Oqi tushsa agarda,
Qorasi chekinadi.



BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Boshqotirma

Katakchalarni to‘g‘ri to‘ldirsangiz, quyida berilgan maqolni bilib olasiz.



... — baxt kaliti.

Tez aytish:

- Qo'zichog'im qo'ng'ir, oq,
Qo'ng'iroqli qo'zichoq.

Savol va topshiriqlar:

1. Yaxshilik qilish deganda nimani tushunasiz?
2. Bilmagan ishga aralashishning oqibati qanday bo'ladi?
3. Falokatning oldini olish uchun nima qilish kerak?
4. O'qigan ertaklaringizdagi qahramonlarni aytib bering.

Boshqotirma

Gapdagi ajratib ko'rsatilgan harflarni daftaringizga yozing.

Topishmoqlar va maqollar biz uchun eng zarur o'git.



Qanday maqol hosil bo'ldi?

TINCHLIK VA DO‘STLIK

Xotira va qadr

Dilshod Rajab

Bu dunyodan o‘tganlar

Nomini yod etamiz.

Yaxshilarni qadrlab,

Dilini shod etamiz.

Chin inson xotirasi

Yashnab turar bog‘ bo‘lib.

Eslab yurar odamlar

Doim ko‘ngli chog‘ bo‘lib.

◆ She‘rni yod oling.

Savollar:

1. Xotira va qadrlash kuni qachon nishonlanadi?
2. Biz kimlarni qadrlashimiz kerak?

Maqol:

- Qadrlasang qadring oshar,
Qadsizdan hamma qochar.

Tez aytish:

- Salima, Saida, Sokina sahifani sinchiklab o‘qidilar.



Tinchlik — eng oliy ne'mat

Zikrilla Ne'mat

Dunyoda tinchlikdan-da bebaho, undanda oliy ne'mat bo'lmasa kerak. Bizning xalqimiz azaldan tinchliksevar, bag'ri keng xalq. Tarixdan ma'lumki, To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi ulug' ajdodlarimiz xalqimiz tinchligi, ozodligi yo'lida ayovsiz kurashganlar.

Xalqimizda «Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas» yoki «Yurti tinchning eli tinch» degan ajoyib maqollar bor. Shunday ekan, biz — ulug' ajdodlar matonatiga sodiq avlodlarmiz. Biz ona Vatanimizni jondan sevib, bugungi tinch, dorulomon kunlarning qadriga yetib yashamog'imiz shart.

Savollar:

1. Tinchlik deganda nimani tushunasiz?
2. Kimlar xalqimiz tinchligi, ozodligi yo'lida kurashganlar?



Tinchlik

Fayzi Shohismoil

Osmon to'la kaptarga —
Rasmin chizib daftarga
Yozdi Omon
«Tinchlik» deb.

Chizib tog'lar rasmini.
So'lim bog'lar rasmini,
Yozdi Omon
«Tinchlik» deb.

So'ngra ota-onasin,
Tasvirlab darsxonasin,
Yozdi Omon
«Tinchlik» deb.

Keyin chizdi o'zini,
Tagida dil so'zini
Yozdi Omon
«Tinchlik» deb.



◆ **She'ni ifodali o'qing.**





Ikki do'st

Kunlarning birida ikki do'st sahro uzra ketayotib, bahslashib qolishibdi. Biri qizishib ketib, noxosdan ikkinchisining yuziga tarsaki tushirib yuboribdi. Do'st og'riqni sezibdi-yu, hech nima demabdi. U qumga: «Bugun do'stim menga tarsaki tushirdi», deb yozibdi.

Do'stlar churq etmasdan yo'lda davom etishibdi va go'zal bir vohaga yetib kelishibdi. Ular ko'lda cho'milishga qaror qilishibdi. Tarsaki yegan do'st sal bo'lmasa cho'kayotganida hamrohi uni qutqarib qolibdi.

U hushiga kelganida, toshga: «Bugun mening do‘stim hayotimni saqlab qoldi», deb o‘yib yozibdi.

Shunda do‘sti undan nega bunday qilganini so‘rabdi.

Do‘sti javob beribdi:

— Birov xafa qilganida ginani shamollar uchirib yuborishi uchun qumga yozishimiz kerak. Ammo kimdir bizga yaxshilik qilganida shamolda uchib ketmasligi uchun toshga o‘yib bitishimiz lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. Hikoya kimlar haqida ekan?
2. Tarsaki yegan do‘st qumga nima deb yozdi?
3. Sizning do‘stingiz noxosdan sizga tarsaki tushirsa, nima qilasiz?
4. Do‘stlaringizni ismi bilan sanab bering.

Maqollar:

- Do‘sting ming bo‘lsa ham — oz,
Dushmaning bir bo‘lsa ham ko‘p.
- Avval o‘yla, keyin so‘yla.



Do'stlik quvonchi

Anvar Obidjon

Men tomonga Boqi kelar,
Qo'yni to'la qoqi kelar.

Men boraman o'rik bilan,
Yegan yaxshi sherik bilan.

Boshqalar ham kelar yana,
Birga o'ynab-kular yana.

Doim shirin so'z bo'lamiz,
Bor olamga do'st bo'lamiz.

◆ She'rni yod oling.

Savol va topshiriqlar:

1. She'r nima haqida?
2. Do'stlik haqida maqollar ayting.


Topishmoq:

- Negadir hamma uni
To'polonchi deyishar.
Bulutlar-u daraxtlar
Ta'rifini bilishar.




BO‘LIM YUZASIDAN TAKRORLASH


Boshqotirmani yeching:



Katakchalarga berilgan harflardan mosini qo‘yib, bo‘limga oid so‘zlarni hosil qiling.



Boshqotirmanini yechsangiz, bo'limga oid so'z kelib chiqadi.




Savol va topshiriqlar:

1. «Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas» maqolini qanday tushunasiz?
2. Ozodlik, tinchlik uchun kurashgan ajdodlarimizdan kimlarni bilib oldingiz?
3. Do'stlikni siz qanday tushunasiz? Daf-taringizga shu haqida yozing.
4. Do'stlik haqida maqollar yod oling va ayting.



YOZ — O‘TADI SOZ



Yoz

Bahodir Obid

Yoz — fasllar ichida eng sevimlisi. Kunlar issiq, tabiat — yam-yashil. Quyosh bobo osmon cho‘qqisida turib, astoydil nur sochadi. Uning nuriga to‘yingan mevalar g‘arq pishadi. Bog‘larda qizil-sariq shaftolilar, oltinrang o‘riklar yaproqlar ortidan xuddi “Meni yeng!” — deganday tovlanadi. Gulzorlarda turli gullar g‘uncha ochib, atrofga o‘zining xushbo‘y iforlarini taratadi.

Anhorlarda tiniq suvlar to‘lib-toshib

oqib, go'yoki yoz haqida jo'shqin qo'shiq kuylayotganga o'xshaydi. Eng maroqlisi, biz yozgi ta'tilda quvnab dam olamiz. Istirohat maskanlaridagi zilol suvlarda miriqib cho'milamiz. Yaqinlarnikiga meh-monga borib, do'st-u dugonalarimiz bilan quvlashmashoq, bekinmashoq kabi o'yinlarni o'ynaymiz.

Xullas... yoz — mazza. Agar xoh-lasangiz, yozda biznikiga keling.


Savol va topshiriqlar:

1. Yoz fasli haqida nimalarni bilib ol-dingiz?
2. Yoz sizga nimasi bilan yoqadi?
3. Yoz fasli haqida o'z bilganlaringizni yozing.

Maqollar:

- Yozda ishlamagan,
Qishda tishlamas.
- Yozgi harakat — kuzgi barakat.





Yozgi yomg'irdan so'ng

Sulton Jo'ra

Quyosh balqib nur sepdi yana,
Ko'kda nafis rango-rang kamon.
Yilt-yilt yonar barglar ustida,
Qolgan kumush tomchi durdona.


Unda-bunda qolgan sel suvi,
Kuzgi ko'lddek, sof tiniq beti.
Suv tagidan silkinar osmon,
Oq bulutlar suzadi sekin.

◆ She'ni yod oling.

Savol:

Yozda yomg'ir yog'ganini kuzatganmisiz?
U sizda qanday taassurot qoldirgan?





Bu qaysi fasl?

To'liqin Hayit

Osmon — tip-tiniq. Tandirdek qizigan kun og'ir harsillaydi. Qorli tog'lar bag'ridagi so'lim oromgohdan bolalarning quvnoq va shod ovozlari jaranglab turardi. Ajoyib pallalar, deysiz beixtiyor.

Akmal Oybekning «Alisherning yoshligi» kitobini o'qimoqda.

— Yur, futbol o‘ynaymiz! — dedi qo‘lida koptok tutgan bola.

Yengil shabada esib, daraxt shoxidan sap-sariq o‘rik tap etib yerga tushdi. Akmal o‘rikka suqlanib tikildi va qo‘liga olib, o‘rnidan turdi-da, suvga chayib, og‘ziga soldi: «Qanday ajoyib fasl bu!» — dedi so‘ng quvnab.

Savol va topshiriqlar:

1. Toping-chi, hikoyada qaysi fasl haqida so‘z bormoqda?
2. Yozda pishadigan mevalarni aytib bering.
3. Qaysi meva sizga ko‘proq yoqadi?

Topishmoq:

- Quyoshda tovlanadi,
Shirasi til yoradi.
Hidi tutar falakni,
Biz yesak ...




Men oromgoh bolasi

Zaynab Begim

Men oromgoh bolasi —
Oromimni olaman.
Quvonch, sabot, g'ayratni
Yuragingga solaman.

Oy bilan, osmon bilan
Sirlashib kezkim kelar.
Bolalik — donolikdir,
Deb gulga yozgim kelar.

O'saman polvon bo'lib,
Quvnatib yurt ko'zini.
Qoqilmay, yiqilmasdan
Tik tutaman o'zimni.



Savol va topshiriqlar:

1. She'r nima haqida?
2. Siz ham oromgohda bo'lganmisiz?
3. O'zingiz bilgan oromgoh haqida so'zlab bering.





O'zinning quyoshim

Anvar Obidjon

Ona quyosh, aksingni
Chizdim yo'lakka.
Sen hammaga mehribon,
O'zing bo'lakcha.
Nur tushmagan joylarda
Kezarmish kulfat.
Yo'lagimni hech qachon
Bosmasin zulmat.

Savol:

Yozda siz qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanasiz?



BO'LIM YUZASIDAN TAKRORLASH

Rebus

Rebusni yechsangiz, oymoma haqidagi topishmoqni bilib olasiz:



p +



,



o




+ ga

t +




.

O'quvchiga oromgohni topishga yordamlashing.



O'quvchiga yordam berib, qaysi maqolni o'rgandingiz?

Rasm atrofidagi katakchalarga yoz ne'matlarining nomlarini topib, yozib chiqing.



Yoz ne'matlaridan qaysi biri sizga ko'proq yoqadi? Nima uchun?

Maqol:

- Dangasaning ishi bitmas,
Yoz kelsa ham qishi bitmas.

Savol va topshiriqlar:

1. Siz oromgohda bo'lganmisiz? O'zingiz bo'lgan oromgoh haqida so'zlab bering.
2. Ovchining ishiga baho bering.
3. Fasllar ichida qaysi fasl sizga ko'proq yoqadi?
4. Siz quyoshni qanday tasvirlaysiz? Quyosh haqida yana nimalarni bilasiz?



MUSTAQIL O'QISH UCHUN

O'zbek elim


Odil Abdurahmon

O'zbek elim,
Bek elim,
Senga nasib
Erk, elim.

Peshanangga
Nur tegib,
Kamol topgin
Baxt emib.

O'zingning o'z
Tug'ing bor,
Mustaqillik
Cho'g'ing bor.

Bobom Temur
Suygan xalq,
Dunyo uzra
Yayrab balq.



◆ **She'ni ifodali o'qing.**



Musavvir

Erkin Malik

Bir musavvir bor ekan. U rasm chizish uchun dala-yu dashtlarga chiqarkan. Shunda: «Meni chizing, meni chizing», — deb osmonda qushlar chuldirar, uloqchalar, toychoqlar atrofida dikir-dikir sakrashar ekan. Bu gal ham shunday bo‘libdi. Musavvir ularga jilmayib qo‘yibdi-da, nimalarnidir chiza boshlabdi. Uni kuzatib turgan jonivorlar:

— Nimaga bug‘doy rasmini chizyapsiz? — deb savolga tutishibdi.

— Bu dunyoda nonsiz yashab bo‘lmaydi. Non — taomlarning podshosi. Non

bug'doydan tayyorlanadi, — javob beribdi musavvir.

— Nega paxta rasmini chizdingiz?

— Paxtasiz ham yashab bo'lmaydi. U kiyim-kechak degani.

— Nimaga humo qushini chizyapsiz? Bulbul yoki kabutarni emas?

— Humo — baxt qushi. Humosi bor yurt tinch va badavlat bo'ladi.

— Quyosh-chi?

— Yurtimiz — quyoshli yurt. Uni bir kun ko'rmasa, hamma sog'inadi.


— Daryo rasmini nega chizdingiz?

— Vatanimizda ikkita katta daryo bor. Biri Sirdaryo, ikkinchisi Amudaryo. Bu ikki daryo butun O'zbekistonni suv bilan ta'minlaydi.

— Tushundik. Oy va yulduzlar-chi?

— Hayot kun va tundan iborat. Kunduzi Quyosh yoritisa, kechasi Oy va yulduzlar butun olamni yoritadi.

Musavvir ana shunday narsalardan ham chiroyli rasm yaratibdi. U O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi ekan.



Yomonga yaqin yursang

Narayan Pandit

Qo'shni o'rmondagi bir daraxtda qarg'a bilan oqqush yashardi. Yozning issiq kunlaridan birida ovchi horib, charchabdi. Daraxtning tagiga kelib, yoniga o'q-kamonini qo'ydi. So'ng o'sha yerda yotib, uxlab qoldi.

Birozdan keyin daraxtning tagidan soya ketib, ovchiga quyosh nuri tusha boshladi. Buni ko'rib, oqqushning ovchiga rahmi keldi va qanotini yozib, unga soya qila boshladi.

Qarg'a doim o'zimg bo'lsam deydi. Bu uning odati. Bu gal ham uxlab yotgan ovchini ko'rdi-da, shartta qilg'ilikni qilib, pir etib uchib ketdi.

Qarg'aning bu qiligidan ovchi uyg'onib ketdi. Qarasa, ro'parasida qanotini yozib, oqqush turibdi. Ovchi bu noma'qul ishni hoynahoy shu qilgan bo'lsa kerak, deb o'ylabdi-da, kamonidan o'q uzib, oqqushni o'ldiribdi.


Shuning uchun ham yomondan uzoq yurish kerak.

Maqollar:

- Yomon ko'z tosh yoradi,
Yomon do'st — bosh.
- Yomon bilan yo'ldosh bo'lma,
Nodon bilan — sirdosh.
- Yomon bola ko'zidan,
Bilinadi so'zidan.

Tez aytish:

- Yayra yaylovda yayrab yurdi.



Non isi

(Rivoyat)

Bir kuni Husayn Boyqaro:

— Dunyodagi eng xushboʻy narsani keltiring, — deb qolibdi. Unga dunyodagi jamiki xushboʻy narsalarni keltirishibdi.

Sulton:

— Yoʻq, — debdi.

Vazirlar nima qilishni bilmay, boshlari qotibdi. Axiyri topolmasdan Alisher Navoiyga murojaat qilishibdi.

Navoiy saroyga bir savat non olib borishni maslahat beribdi.

— Rahmat, doʻstim, — debdi Husayn Boyqaro, — yangi yopilgan non isini istayotgan edim, topib aytibsiz.

Quyoshdan erta turib

Yo'ldosh Sulaymon



Toza havo —
Tanga davo.
Kutaman tongni,
Tinglab dildan
Poytaxtimdan
Yangragan bongni.

Yotsa Omon,
Uyg'otaman:
— Tur, uka, qani,
Qulochni yoz,
Bajarsak soz
Badantarbiyani.

Bizdan oyim
Xursand doim,
So'zlar:
— Qo'zilar,
Hamma sog'liq
Shunga bog'liq,
Bo'y ham cho'zilar!






Qushcha

Abdulla Oripov

Goh butoqqa, goh gulga qo'nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha?

Kel, yashaylik hamisha birga,
Bizda bahor, gullar barchasi.
Bilsang, men ham chaman o'lkamning
Sho'x va quvnoq, shod o'g'ilchasi.



Chinor va maysalar

Olloyor Begaliyev

Chinorning tuni bilan uyqusi buzilib turdi. Ba'zan oh urar, ba'zan esa yosh boladay qiqirlab kulardi. Chinor alahlaganda maysalar cho'chib ketishardi.

Tong otdi. Quyosh nurlari bilan Chinorni quchoqlab oldi.

— Omonmisiz, go'dagim?

— Go‘dakmish, — chinorni mazax qildi maysalar.

— Sizlar ham go‘daksizlar, — dedi Quyosh bobo nurlari bilan maysalarni chimchilab. Chinor tuni bilan bezovtalanib chiqqanidan nolidi:

— Nega bunday bo‘ldi, hayronman? Ilgari tinch uxlardim.

— Axir, bundan ming yil ilgari xuddi shu kuni urug‘ingni yorib, yer yuziga chiqqanding-ku! — dedi Quyosh bobo.

— Buni qarang-a, ming yoshga to‘ldimmi hali? — hayratlandi Chinor.

— Ming yosh? Bu nima degani? — so‘rashdi maysalar.

— Ming yosh degani o‘rtancha o‘g‘lim Zaminbekning mening atrofimda ming marta aylanib chiqishi, — dedi Quyosh bobo.

— Zaminbek kim? Nega u sizning atrofingizda aylanadi?

— Hoy chinor, o‘zing tushuntirib ber maysalarga,— deb yo‘lida davom etdi Quyosh bobo.

Ulug'bek bobom

Po'lat Mo'min

Osmonlarda nur ko'zlaringiz,
Charaqlaydi yulduzlaringiz.
Amir Temur ruhi bo'lib yor,
Yashnamoqda bu ozod diyor.

Samarqandda bordaysiz mudom,
Ey munajjim, Ulug'bek bobom.
Fan ko'ksida yashaysiz hamon,
Ardoqlaydi jahon-u zamon.

O'chmagaydir hech izlaringiz,
Biz — yerdagi yulduzlaringiz.



Boychechak

Muhtarama

— Boy chechag-u oy chechak,
Muncha xushchiroy chechak.
Senga osmon mehribon,
Keng qirlar saroy, chechak.

Kulgilaring nur sochar,
Atirlaring moy, chechak.
Men bilan yur, uyimiz —
Senga issiq joy, chechak.

— Bilib qo‘ygin, emasman
Men arzandaoy chechak.
Ulash barcha do‘stingga,
Chunki nomim — boychechak.






Maqtanchoq g'oz

Abdulla Avloniy

Bir g'oz suvda suzib yurib, o'ziga-o'zi maqtanib: «Olamda menday hunarmand qush yo'qdir. Yerdan yuraman, suvda suzaman, havoda uchaman. Bir o'zimning uch xil hunarim bor», — debdi. G'ozning bu so'zini bir qurbaqa eshitib: «Birodar, sen buncha maqtanmasang ham bo'lar edi. Chunki baliqdek suza olmaysan, kiyikday yugura olmaysan, lochindek ucha olmaysan. Chala-chulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilganing ma'qul», — debdi.

Maqol:

- Chiranma, g'oz, hunaring oz.



Otam o'giti, onam oq suti

Po'lat Mo'min

O'stirdi sog'lom,
Baxsh etdi orom,
O'rgatdi salom
Otam o'giti,
Onam oq suti.

Chiqdi til — so'zim,
Nur ko'rdi ko'zim,
Tanitdi o'zim
Otam o'giti,
Onam oq suti.

Suv — shifo

Erkin Malik

Ravshan shifokor ko'rigidan o'tayotganda kurak suyaklari qiyshiq o'sayotganligi ma'lum bo'ldi.

— Endi nima qilamiz, do'xtir? — xavotirga tushdi dadasi.

— Oldini olsa bo'ladi. Buning uchun suzish bilan shug'ullanish kerak.

— Suv sovuq-ku! — deb yubordi Ravshan shoshib.

— Sen xavotir olma, — dedi shifokor kulib. — Shahrimizda shunday suv havzalari borki, qishda ham suvi yozdagidek iliq bo'ladi.

Ota-bola xursand bo'lib, shifokor tavsiya etgan sport majmuasini izlab ketishdi.

Savollar:

1. Shifokor nega Ravshanga suzishga qatnashishni maslahat berdi?
2. Siz sportning qanday turi bilan shug'ullanasiz?

Buloq va daraxt

(Ertak)

Zamira Ibrohimova



Qadim zamonlarda bir daraxt va buloq boʻlgan ekan. Ular yonma-yon yashar ekanlar. Buloq endigina koʻz ochgan, nihol esa nozikkina, salgina shamoldan chayqalib ketarkan...

Oradan oylar, yillar oʻtibdi. Buloq suvi qirgʻoqdan toshib, irmoq hosil qilibdi. Nihol ham sarvqomat daraxtga aylanibdi. Yoʻlovchilar daraxtning soyasida dam olib, buloqning tiniq suvidan ichar ekanlar. Ketayotganlarida esa negadir faqat daraxtni maqtashar ekan:

— Zap qomatdor daraxt boʻpti-da!


Daraxtning dimogʻi koʻtarilib, hatto buloqni mensimay qoʻyibdi.

— Men soya solmaganimda, yoningda kim ham to‘xtardi? Na soyang bor, na husning! — manmansirabdi u.

Daraxtning gapidan buloqning dili og‘ribdi. Bu hol yana takrorlangach, buloq suvi sekingina o‘z oqimini o‘zgartiribdi. Shundan so‘ng daraxt ildizlariga bir tomchi ham suv kelmay qo‘yibdi. Daraxt esa buni sezmay, ko‘kka bo‘y cho‘zganicha mag‘rur turaveribdi. Biroq ko‘p o‘tmay a‘zoyi badani bo‘g‘ilib borayotganini sezibdi. Shundagina pastga egilib, buloq suvi kelmayotganini ko‘ribdi.

— Nahotki buloq menga quvvat berib turgan bo‘lsa?! — o‘ylanibdi u.

Daraxtning ahvoli tobora yomonlashibdi, unga husn berib turgan yaproqlari qovjirab to‘kila boshlabdi. U buloqning dilini nohaq og‘ritganligini, tiriklikning kuchi ahillikda ekanini tushunib yetibdi.




Dil soʻzlari

Habib Rahmat

Oq kaptarim chiroyli,
Koʻk kaptarim chiroyli.
Tinchlik qushi deydirgan
Dil gaplarim chiroyli.

Koʻk toqida charx ura,
Bir dasta gulga oʻxshar.
Quyosh boshida kulsa,
Bir hovuch nurga oʻxshar.

Parvoz aylang elma-el,
Qanotingiz tolmasin.
Yer yuziga: «Tinchlik», — deng,
Eshitmagan qolmasin.



Yo‘qolgan ko‘zoynak

Kavsar Turdiyeva

Gulshoda uch yoshdan oshdi. Uydagi hamma narsaga qiziqib quloq soladi. Mana, hozir ham buvisi ko‘zoynagini topa olmayapti.

— Buvingga ko‘zoynagini qidirishib yubor! — dedi oyisi va o‘zi ham qidirishga tushdi.

Dadasi esa kim ko‘zoynakni topsa, shokolad sovg‘a qilishini aytdi. Gulshoda stoldagi gazetani olib qarasa — ko‘zoynak... U yugurganicha dadasining yoniga bordi.

— Men topdim! Topdim!

— Qoyil! — dedi oyisi. Buvisi ham rosa xursand bo‘ldi. Dadasi esa:

— Bu topag‘on qizimga, — deb shokolad uzatdi.

Hamma o‘z ishi bilan band bo‘ldi. Oyisi ovqat qildi. Buvisi ko‘rpa qavidi. Dadasi hovlida yer chopdi. Tushlikda birgalashib ovqatlanishdi. Keyin hamma turib yana o‘z ishini davom ettirishga kirishdi.

— Yana ko‘zoynagim yo‘qolib qolibdi, — birdan buvisining xafa ovozi eshitildi.

— Qayerga qo‘ygan edingiz? — so‘radi oyisi kelib.


Gulshoda pardaning ortidan mo‘ralab:

— Mana, buvimning ko‘zoynagini topib oldim. Endi shokolad berasizmi? — dedi.

Lekin bu safar oyisi unga xo‘mrayib qaradi va qo‘lidagi ko‘zoynakni olib qo‘ydi.

Maqol:

● To‘g‘ri so‘zlash insonni yaxshilikka eltadi.



Hakka va uning bolalari (Ertak)

Bir kuni hakka bolalarini dalaga olib boribdi-da:

— Endi sizlar katta bo‘lib qoldingiz, ovqatingizni o‘zingiz topib yeyishingiz kerak, — debdi.

Ona hakkaning bu gaplari bolalariga yoqmabdi.

— Odamlar bizni tutib olsa, nima qilamiz? — deyishibdi bolalari.

— Bundan qo‘rqmasalaringiz ham bo‘ladi, — debdi ona hakka. — Odamlar sizni tutish uchun oldin tuzoq qo‘yishadi. Tuzoqqa don sepishadi. Sizlar o‘sha tekin donga uchmasalaringiz, odamlar sizni tuta olishmaydi.

— Shundayku-ya, — deyishibdi hakka bolalari, — agar odam bizni tosh bilan urib tushirsa-chi?


— U tosh olish uchun yerga engashadi-ku! — debdi ona hakka.

— Qo‘lida toshi bo‘lsa-chi? — yana e‘tiroz bildirishibdi bolalari.

— O‘h-ho‘, sizning aqlingiz shunchaga yetar ekan, demak, dushmandan saqlanishning ham uddasidan chiqa olasizlar, — debdi-da, ona hakka bolalarini dalada qoldirib, o‘zi uchib ketibdi.

Tez aytish:

- Oq choynakka ko‘k qopqoq,
Ko‘k choynakka oq qopqoq.



Olma

To'lqin Ilhomov

Bobo nevarasini tog' etagidagi dam olish uyiga olib bordi. Ular aylanib yurib shig'il hosilli, qirmizi mevalari ko'zni o'ynatadigan olma daraxtiga ko'zlari tushdi. Bobo ehtiyotkorlik bilan ikki dona olmani uzib, bittasini nevarasiga uzatdi.

— Shirin ekan... Bobo, bu olma daraxtini kim ekan? — dedi nevara.

— Urug'dan chiqqan bo'lsa kerak, — dedi o'ychanlik bilan bobo.

Nevara kutilmaganda olma shoxlariga tikilib qoldi.

— Xalta olib kelsak bo‘larkan.

Bobo hushyor tortdi.

— Bo‘tam, odamni uyaltirdingiz-ku.

— Nega bunday deyapsiz? — hayron bo‘ldi nevara.

— Qani, ayting-chi, bu olma daraxtini siz ekanmisiz?

— Yo‘q.

— Saratonda chanqaganda yarim chelak bo‘lsa ham suv keltirganmisiz?

— Yo‘q.

— Ana, ko‘rdingizmi, daraxtga yordam-ingiz tegmapti. U qor, yomg‘ir suvlariga qanoat qilgan. Izg‘irinlarga chidagan. Endi hosilga kirib, uni barcha mehmonlarga ulashyapti.

Nevara shundaymi, deganday olma daraxtiga qaradi. Daraxt boboning gaplarini tasdiqlaganday shoxlarini qimirlatib qo‘ydi.

Hikmatli gap:

- Halol ish — lazzatli yemish.



Arpa-bug'doy osh bo'lur

Abdusodiq Irisov

Uch kishi safarga chiqishibdi. Ulardan ikkitasi belbog'iga oltin-kumushlarini, qimmatbaho narsalarini tugib jo'nabdi. Uchinchisi bir xalta non-u tolqon, bir ko'za suv ko'tarib yo'lga chiqibdi. Buning xaltasini ko'rib, haligi ikki kishi rosa kulibdi, uni mazax qilibdi.

— Obbo sodda-ey, oltin-kumush olmay, tolqon ko'tarib yuribsanmi-a, og'irlik qiladi-ku, — deyishibdi ular.

— Mayli, — debdi xalta ko'targan kishi va yo'lga ravona bo'lishibdi.

Nima bo'libdi-yu, musofirlar cho'l-u bi-yobonga borib qolishibdi. U yerda na odam, na bir giyoh bor ekan. Oltin-u kumush egalarining qorni ochib, nima qilishini bilmay qolibdi. Endi ikkovi ham tolqoni bor kishiga yalinishga tushishibdi. Ular o'z boyliklaridan berib, yo non, yo tolqonidan sotishini so'rashibdi. Tolqoni bor kishi oltin-u kumushlarni qo'lga olib, og'ziga solib ko'ribdi, keyin aftini bu-rishtirib:

— Buni yeb bo'lmaydi-ku! — debdi va egalariga qaytarib beribdi.

— Mayli, kelinglar, — debdi u ham-rohlariga rahmi kelib, — ovqatni baham ko'ramiz.

Oltin-u kumush egalari o'z qilmish-laridan xijolat bo'lishibdi. Shunga qa-ramay darrov o'tirib, non-u tolqondan yeyishibdi. Shunda ikkovi ham:

— Arpa-bug'doy osh ekan, oltin-kumush tosh ekan,— deyishibdi.

Aql va boylik

(Ertak)

Bir cholning to'rt o'g'li bor ekan. Bir kuni chol: «Men qarib qoldim, orangizdan bittangiz oila boshlig'i bo'lishingiz kerak. Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, o'zini ko'rsatsin. Shu merosxo'r bo'ladi», — debdi.

Katta o'g'il zumrad ko'zli oltin uzuk taqqan qo'lini, ikkinchi o'g'il zarbof choponini kiyib ko'rsatibdi. Uchinchi o'g'il kumush va javohirlar qadalgan kamarini beliga bog'lab ko'rsatibdi. Chol kenja o'g'liga qarab:

— Nega sen indamaysan? Sen qaysi boyliging bilan maqtanasan? — debdi.

— Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor, — debdi kenja o'g'il.

Chol bor-yo'g'ini kenja o'g'liga meros qilib qoldiribdi va oila boshlig'i etib tayinlabdi.



Yaxshi niyat

Anvar Obidjon

Hammada ham bor havas,
Mana, kichkina Avaz
Ko'kka boqar uxlamay.
Men dedim, qani, so'ray:
«Nelarni quchdi zikring,
Qaylarga uchdi fikring?»
U der: «Qaniydi bo'lsam
Men quruvchi-kosmonavt.
Qurar edim Oyda ham
Bog'cha, maktab, internat...»

She'r topishmoqlar

Shamlar

Yonar edi o'nta sham.
Uchtasini o'chirsam,
Qani kim ayta olar?
Menda nechta sham qolar?



Qaysi biri ma'qul?

— «Sh» harfining oldidan
Qaysi harf mos keladi?

Javob berar G'ayratjon:

— «l» harfi soz keladi.

— Menga qolsa, — der To'ra, —
«O» ma'qul «l»dan ko'ra.

Topishmoqning javobin
Bir o'ylab ko'ring, jo'ra,

Bu bilan ne demoqchi
Bizga G'ayrat va To'ra?



Tez aytishlar

- Qo'sh qo'lqop,
Qo'shovi ham
Bo'sh qo'lqop.
- Olim oldidagi oltita olmani oldi.
- Oydin oydinda oyisidan oldin bordi.
- Hashar, hashardan shahar yashnar.
- Dildora — Dinoraning dugonasi,
Dinora — Dilnozaning dugonasi.
- Qodir qaldirg'ochning qayrilgan qanotiga qaradi.
- Dilshodning dili shod,
Dili shodning o'zi shod.
- Saidning sa'vasi
Sabzining sarasini,
Mahmudning maynasi
Mayizning maydasini yeydi.

MUNDARIJA

BIZ VATANNING ERTASI

Vatan (<i>Nosirjon Jo'rayev</i>)	4
Yurt qalqonlari (<i>Dilshod Rajab</i>)	5
Vatan surati (<i>To'lqin Hayit</i>)	6
Vatan — bu... (<i>Po'lat Mo'min</i>)	8
Bir kabutar (<i>Alisher Navoiy</i>)	9
Baxtli bolalar o'lkasi (<i>Anvar Obidjon</i>)	10
Osmondagi yo'limiz (<i>Vafo Fayzulloh</i>)	11
Bo'lim yuzasidan takrorlash	13

MO'JIZAVIY QISH

Qish (<i>Tursunboy Adashboyev</i>)	15
Yashasin qish	16
O'zimizning qish (<i>Xudoyberdi Komilov</i>)	17
Qor bosgan dala (<i>Dilshod Rajab</i>)	18
Qish va bolalar (<i>Anvar Obidjon</i>)	20
Bo'lim yuzasidan takrorlash	21

BIZ — BUYUKLAR AVLODI

Amir Temur (<i>Muhammad Ali</i>)	23
Amir Temur o'gitalari	24
Muhammad al-Xorazmiy	25
G'azal mulkinging sultoni	26
Abu Ali ibn Sino	28
Buyuk munajjim	29
Shoh va shoir	30

Ona sabog‘i (<i>G‘iyos Komilov</i>)	31
Bo‘lim yuzasidan takrorlash	33

KO‘KLAM — YASHNAYDI OLAM

Bahor kelgach (<i>Tursunboy Adashboyev</i>)	35
Bahor (<i>Sharofat Ashurova</i>)	36
Ona allasi (<i>Rivoyat</i>)	37
Sakkizinchi mart (<i>Zikrilla Ne‘mat</i>)	38
Bahor keldi (<i>Vafo Fayzulloh</i>)	40
Navro‘z bayrami	41
Navro‘z (<i>Rauf Tolib</i>)	43
Bo‘lim yuzasidan takrorlash	44

KITOB BIZNING DO‘STIMIZ

Kitobni asrang	46
Kitobim, jon kitobim (<i>Dilshod Rajab</i>)	47
O‘quv va bilim haqida (<i>Yusuf Xos Hojib</i>)	48
Kompyuter	50
Kitobga mehr (<i>Mirkarim Osim</i>)	51
Bo‘lim yuzasidan takrorlash	52

XALQ O‘GITI — BAXT KALITI

Sher va sichqon (<i>Ertak</i>)	54
Maymun va duradgor (<i>Masal</i>)	56
Shamol va quyosh (<i>Ezop</i>)	58
Rostgo‘y bola (<i>Ertak</i>)	60
Aqlli qarg‘a (<i>Abdulla Avloniy</i>)	62
Shirin uyqu	64

Maqtanchoq xo'roz (<i>Vasil Suxomlinskiy</i>)	66
Kim aqli	67
Qafasdagi qushcha va ko'rshapalak	69
Op terakmi, ko'k terak?	71
Maqollar	72
Topishmoqlar	73
Bo'lim yuzasidan takrorlash	75

TINCHLIK VA DO'STLIK

Xotira va qadr (<i>Dilshod Rajab</i>)	77
Tinchlik eng oliy ne'mat (<i>Zikrilla Ne'mat</i>)	78
Tinchlik (<i>Fayzi Shohismoil</i>)	79
Ikki do'st	80
Do'stlik quvonchi (<i>Anvar Obidjon</i>)	82
Bo'lim yuzasidan takrorlash	83

YOZ — O'TADI SOZ

Yoz (<i>Bahodir Obid</i>)	85
Yozgi yomg'irdan so'ng (<i>Sulton Jo'ra</i>)	87
Bu qaysi fasl? (<i>To'lqin Hayit</i>)	88
Men oromgoh bolasi (<i>Zaynab Begim</i>)	90
O'zimning quyoshim (<i>Anvar Obidjon</i>)	91
Bo'lim yuzasidan takrorlash	92

MUSTAQIL O'QISH UCHUN

O'zbek elim (<i>Odil Abdurahmon</i>)	94
Musavvir (<i>Erkin Malik</i>)	95
Yomonga yaqin yursang (<i>Narayan Pandit</i>)	97
Non isi (<i>Rivoyat</i>)	99

Quyoshdan erta turib (<i>Yo'ldosh Sulaymon</i>)	100
Qushcha (<i>Abdulla Oripov</i>)	101
Chinor va maysalar (<i>Olloyor Begaliyev</i>)	102
Ulug'bek bobom (<i>Po'lat Mo'min</i>)	104
Boychechak (<i>Muhtarama</i>)	105
Maqtanchoq g'oz (<i>Abdulla Avloniy</i>).	106
Otam o'giti, onam oq suti (<i>Po'lat Mo'min</i>)	107
Suv – shifo (<i>Erkin Malik</i>).	108
Buloq va daraxt (<i>Zamira Ibrohimova</i>)	109
Dil so'zlari (<i>Habib Rahmat</i>)	111
Yo'qolgan ko'zoynak (<i>Kavsar Turdiyeva</i>)	112
Hakka va uning bolalari (<i>Ertak</i>)	114
Olma (<i>To'lqin Ilhomov</i>)	116
Arpa-bug'doy osh bo'lur (<i>Abdusodiq Irisov</i>)	118
Aql va boylik (<i>Ertak</i>)	120
Yaxshi niyat (<i>Anvar Obidjon</i>)	121
She'r topishmoqlar	122
Tez aytishlar	123

O'quv nashri

Tal'at G'afforova,
Ergash Shodmonov,
Gulbodom Eshturdiyeva

O'QISH KITOB

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik

O'n beshinchi nashr

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2019

Rassomlar: Shirin Abilxayirova, Umid Sulaymonov

Muharrir Eldor Bozorov
Badiiy muharrir Bahrom Bobojonov
Texnik muharrir Juldiz Kadirova
Sahifalovchi Mastura Atxamova
Musahhihlar: Ma'mura Ziyamuhamedova,
Shahlo Xoldorova

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011.

Bosishga ruxsat etildi 03.05.2019. Bichimi 70x90^{1/16}. «Pragmatic» garniturası.
Kegli 18 shponli. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 9,36.
Nashriyot-hisob tabog'i 9,0. Adadi 533762 nusxa. Buyurtma № 431.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi, 100000,
Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.**